



## ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARDA KASBIY QIZIQISHLARNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGNING ROLI

**Eshmonov A'zam Abdurashidovich**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Ostanov Shuxrat Sharifovich, Buxoro davlat universiteti,  
psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17046716>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 28- Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 31- Avgust 2025 yil

### KEY WORDS

*Alohida ta'lim ehtiyojlari, psixolog, kasbga yo'naltirish, diagnostika, maslahat, qiziqish va qobiliyat, o'quvchi shaxsini rivojlantirish.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish jarayonida psixologning vazifalari va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Psixolog kasbiy yo'naltirishda bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari hamda individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali shaxsiy rivojlanish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi. Maqolada shuningdek, psixologik diagnostika, maslahat berish, o'quvchilar bilan individual va guruhiy ishlash, ota-onalar hamda pedagoglar bilan hamkorlik qilish kabi vazifalarning mazmuni tahlil qilinadi.*

Zamonaviy ta'lim tizimida barcha bolalarga, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari (ATE) bo'lgan bolalarga teng ta'lim olish huquqi kafolatlanmoqda. Alohida ta'lim ehtiyojlari deganda — jismoniy, aqliy, sensor, nutqiy yoki ijtimoiy-emotsional rivojlanishda cheklanishlarga ega bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonida qo'shimcha yordam va sharoitlarga muhtojligi tushuniladi. ATE bo'lgan bolalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi);
- Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'r, zaif ko'ruvchi);
- Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar (alogiya, dislaliya, duduqlanish va boshqalar);
- Intellektual rivojlanishida cheklanishi bo'lgan bolalar (oligofreniya, aqliy zaiflik);
- Jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalar (harakat apparati buzilishi);
- Ijtimoiy-emotsional muammolari mavjud bolalar (autizm spektr buzilishi, diqqat yetishmovchiligi, giperaktivlik sindromi).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat faoliyati orqali o'z hayotini mazmunli tashkil etishi mumkin. Shu sababli ularni erta yoshdan kasbiy qiziqishlarga yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy qiziqish — shaxsning ma'lum bir sohada bilim olishga, ko'nikma va malaka egallashga intilishi, mehnat faoliyati jarayonida o'zini namoyon qilish istagidir. Psixologiya fanida kasbiy qiziqishning quyidagi asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi: motivatsion jihati — kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat shakllanishi; kognitiv jihati — kasbiy bilimlarni egallashga bo'lgan intilish; emotsional jihati — faoliyatdan zavqlanish, qoniqish hosil qilish; irodaviy jihati — qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali maqsadga intilish. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishning shakllanishi ularning shaxsiy xususiyatlari,

oilaviy sharoitlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish darajasi va psixolog yordamining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Psixolog kasbiy yo'naltirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi: Bolaning shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash; kasbiy faoliyat turlari haqida ma'lumot berish; bola va uning ota-onasiga maslahat berish; kasbiy yo'naltirish mashg'ulotlarini tashkil etish (trening, test, suhbat); bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytirish. Shunday qilib, psixologning asosiy maqsadi — ATE bo'lgan bolalarning mehnat faoliyatiga moslashuvi va kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun psixologik ko'mak ko'rsatishdan iborat.

ATE bo'lgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni umumiy ta'limdagi kabi standart asosida emas, balki maxsus yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bunda: individual yondashuv — har bir bolaning imkoniyatlari, qobiliyatlari va cheklanishlari hisobga olinadi; moslashtirilgan o'quv dasturlari — nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarga ko'proq urg'u beriladi; mehnat faoliyati orqali tarbiya — oddiy ish turlari orqali mustaqillik va mas'uliyat hissi shakllantiriladi; ota-onalar bilan hamkorlik — kasbiy yo'naltirish jarayoni faqat ta'lim muassasasida emas, balki oilada ham davom ettiriladi. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda davlat siyosati, inklyuziv ta'lim dasturlari, maxsus kasb-hunar kollejlari va psixologik xizmat tizimining o'rni ham muhimdir.

Kasbiy qiziqishlarning shakllanishi bolalarning yosh xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Psixologiya fanida yosh davrlari bo'yicha kasbiy qiziqishlar quyidagicha rivojlanadi:

- Boshlang'ich maktab yoshi (7–10 yosh) — bolalarda turli kasblarga qiziqish o'yin orqali yuzaga chiqadi. Bu davrda ular ko'proq o'qituvchi, shifokor, haydovchi kabi kasblarga qiziqadi.

- O'smirlik davri (11–15 yosh) — o'zini kasbda sinash, mustaqil qaror qabul qilishga intilish kuchayadi. Shaxsiy qiziqishlar tobora barqarorlashadi.

- Yoshlik davri (16 yoshdan yuqori) — kasbiy qiziqishlar hayotiy maqsad va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashadi, tanlangan kasbga nisbatan barqaror motivatsiya shakllanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ushbu jarayon odatdagi tengdoshlariga qaraganda sekinroq kechishi mumkin. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola ko'proq vizual asosda kasblarga qiziqadi, harakat cheklanishi bo'lgan bola esa intellektual faoliyatga ko'proq moyillik bildiradi. Shu sababli psixolog yosh va psixofiziologik omillarni hisobga olgan holda yondashishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni aniqlash uchun turli psixodiagnostik usullar qo'llanadi. Eng ko'p qo'llaniladigan metodlar: suhbat va kuzatuv – bolaning tabiiy sharoitdagi xatti-harakatlari orqali qiziqishlarini aniqlash; so'rovnomalalar – “Kasbga qiziqishlar testi” (A.E. Golomshtok), “Qiziqishlar kartasi” (J. Holland metodikasi asosida moslashtirilgan) va boshqalar; psixologik testlar – qobiliyatlarini aniqlovchi testlar (iqtidor, tafakkur, xotira, tasavvur darajasi); loyihaviy metodlar – rasm chizish, ertak tuzish, ro'l o'ynash orqali bolaning qiziqishlarini tahlil qilish. Diagnostika jarayonida psixolog faqat bolaning qiziqishlarini emas, balki uning shaxsiy fazilatlarini, ijtimoiy muhit ta'sirini ham o'rganadi. Masalan, ota-onaning kasbi yoki o'qituvchining yo'naltirishi bolalarning qarorlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning muhim sharti — bolaning ichki qobiliyatlarini aniqlashdir. Qobiliyatlar biologik asos (iroda, sezgi, temperament) va ijtimoiy tajriba (bilim, ko'nikma, malaka) uyg'unligi orqali shakllanadi. Psixolog quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim: intellektual qobiliyatlar — mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish ko'nikmalari; texnik qobiliyatlar — mexanik, konstruktorlik, hisob-kitob qilish qobiliyati; ijodiy qobiliyatlar — tasavvur, badiiy-estetik qobiliyatlar; kommunikativ qobiliyatlar — odamlar bilan ishlash, muloqot qilish, yetakchilik fazilatlarini. Masalan, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola musiqaga qiziqishi mumkin, nutqida nuqsoni bo'lgan bola esa amaliy hunar (tikuvchilik, kulolchilik) yo'nalishida muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimol.

Kasbiy qiziqishlarni shakllantirish jarayoni motivatsiya orqali amalga oshadi. Psixolog olimlar bu jarayonni bosqichma-bosqich quyidagicha tasvirlaydilar:

1. Tanishuv bosqichi – bola turli kasblar bilan tanishadi, dastlabki qiziqishlar shakllanadi.

2. Qiziqishni kuchaytirish bosqichi – psixolog, o'qituvchi va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida muayyan kasbga ijobiy motivlar kuchayadi.

3. Amaliy sinov bosqichi – bola o'zini kasb elementlarida sinab ko'radi (masalan, texnika to'garagi, musiqa mashg'ulotlari).

4. Barqarorlashuv bosqichi – bola tanlagan kasbiga nisbatan ongli qarashlarga ega bo'ladi, bu esa kelajakdagi ta'lim va mehnat yo'lini belgilashga yordam beradi.

Kasbiy motivatsiya shakllanishida psixologning vazifasi — bolaga mos keladigan kasblarni tanlashga yordam berish, uning qiziqishini doimiy qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashdir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda psixologning faoliyati uch asosiy yo'nalishda olib boriladi: Individual ishlar – bola bilan yakka tartibda suhbat, psixodiagnostika, qiziqishlarni aniqlash va shaxsiy reja tuzish; guruhiy ishlar – trening mashg'ulotlari, kasbiy o'yinlar, ro'l o'ynash, kasblar haqida taqdimotlar; tashkiliy ishlar – ota-onalar, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish. Shunday qilib, psixolog individual ishlarda bolaning psixologik xususiyatlari (qobiliyat, motivatsiya, qiziqishlar)ni chuqur o'rganadi. Guruhiy mashg'ulotlarda esa ular bir-biri bilan muloqot qilishni, jamoada ishlashni, kasblar haqida bilim olishni o'rganadilar. Kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda nafaqat psixolog, balki ota-ona va o'qituvchilar ham faol ishtirok etishi zarur. Bunda psixolog quyidagi mexanizmlardan foydalanadi: ma'rifiy suhbatlar va seminarlar – ota-onalarga kasbiy yo'naltirishning ahamiyati haqida tushuntirish berish; konsultatsiyalar – bolaning individual qiziqishlari va imkoniyatlari asosida kasb tanlash bo'yicha maslahatlar berish; hamkorlikdagi tadbirlar – “Kasblar haftaligi”, “Ochiq eshiklar kuni” kabi tadbirlarni tashkil etish. Shu tariqa, ota-onalar ko'pincha farzandining kasbiy yo'nalishini o'z xohishiga qarab belgilashga intiladilar. Shu sababli psixologning vazifasi – ota-onada bolaning qiziqishlarini hisobga olish madaniyatini shakllantirishdir.


Psixologning amaliy faoliyatida trening va maxsus mashg'ulotlar alohida o'rin tutadi. Masalan: kasblar olamiga sayohat – turli kasblar haqida videorolik, kitob va o'yinlar orqali tanishtirish; kasb tanlash testi – qiziqish va qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan psixologik mashqlar; rollar o'yini – shifokor, muhandis, ustoz kabi kasblarni o'ynash orqali amaliy ko'nikma berish; “Men kelajakda kim bo'laman?” treningi – o'quvchilarning o'zini kasbiy kelajagini tasavvur qilishga o'rgatish. Bu mashg'ulotlar bolalarda qiziqishni kuchaytirish bilan birga, ularning ijtimoiy moslashuvini ham ta'minlaydi. Psixologik tadqiqotning amaliy qismi sifatida so'rovnoma, test va kuzatuv metodlari qo'llanildi. Tadqiqot ob'ekti: maxsus maktab-internatda tahsil olayotgan 20 nafar 12–15 yoshli o'quvchi. Maqsad: kasbiy qiziqishlarning shakllanganlik darajasini aniqlash.

So'rovnoma savollari namunasi: 1. Qaysi fanlarni yoqtirasiz? 2. Kelajakda kim bo'lishni xohlaysiz? 3. Qaysi faoliyat sizga ko'proq yoqadi – kitob o'qish, texnika bilan ishlash, rasm chizish, sport yoki boshqa? 4. Kasb tanlashda siz uchun eng muhim narsa nima – pul, qiziqish, shon-shuhrat, oilaviy an'ana?

Natijalar (foizlarda): 35% – texnik yo'nalishlarga qiziqish bildirgan; 25% – ijodiy kasblarga (musiqa, rasm, adabiyot); 20% – ijtimoiy kasblarga (o'qituvchi, shifokor, psixolog); 20% – amaliy hunarlarga (tikuvchilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi).

Diagramma -1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kasbiy qiziqishlari taqsimoti (%)

Shunday qilib, tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, ATE bo'lgan bolalarda kasbiy



qiziqishlar turlicha va ularni rivojlantirish uchun psixologik yordam muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologning amaliy faoliyati alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Individual va guruh ishlar, ota-onalar bilan hamkorlik, maxsus mashg'ulotlar va diagnostika metodlari orqali ular kelajak kasbiy faoliyatiga ongli tayyorlanadi.

Xulosa. Mazkur maqolada "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda psixologning roli" mavzusi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Olib borilgan ilmiy tahlillar, diagnostik tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

- Alohida ta'lim ehtiyojlari (ATE) tushunchasi jismoniy, psixik, sensor va emotsional rivojlanishda cheklanishi mavjud bo'lgan bolalarni ifodalaydi. Ularning to'laqonli ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlar yaratilishi shart.

- Kasbiy qiziqish shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, mehnat faoliyatiga ijobiy munosabat bildirish va jamiyatda o'z o'rnini topish istagidir. ATE bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishning shakllanishi sekinroq kechsa-da, ularni rivojlantirish mumkin va zarur.

- Psixologning nazariy roli kasbiy yo'naltirish jarayonida qiziqishlarni aniqlash, motivatsiyani kuchaytirish, kasblar haqida ma'lumot berish hamda shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda mos kasblarni tavsiya qilishdan iboratdir.

- Psixologik xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, ATE bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirish jarayonida individual yondashuv, moslashtirilgan dasturlar va amaliy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi.

- Amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ATE bo'lgan bolalarda qiziqishlarning asosiy yo'nalishlari quyidagicha taqsimlandi: texnik kasblar – 35%, ijodiy kasblar – 25%, ijtimoiy kasblar – 20%, amaliy hunarlar – 20%. Bu esa ularning qiziqishlari keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi.

- Psixolog tomonidan o'tkazilgan individual suhbatlar, guruh traininglar, kasblar olamiga sayohatlar bolalarda motivatsiyani kuchaytirish, o'zini kasbda sinash va ongli

ravishda kelajak kasbini tanlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, psixologning faoliyati ATE bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvi va mehnat faoliyatida o'z o'rnini topishi uchun poydevor yaratadi.

#### Tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lim tizimi uchun tavsiyalar: inklyuziv va maxsus ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirish markazlarini tashkil etish; o'quv dasturlariga kasbiy qiziqishlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlarni kiritish; psixologlarning kasbiy yo'naltirish bo'yicha malakasini oshirish.

2. Psixologlar uchun tavsiyalar: har bir bola bilan individual kasbiy reja ishlab chiqish; kasblarga oid treninglar, o'yinlar, rolli mashg'ulotlarni ko'proq qo'llash; ota-onalarni kasbiy yo'naltirish jarayoniga faol jalb qilish.

3. Ota-onalar uchun tavsiyalar: farzandning qiziqishlarini inobatga olish va qo'llab-quvvatlash; kasb tanlashda bolaning qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish; psixolog va o'qituvchilar bilan hamkorlikda ish olib borish.

4. Jamiyat uchun tavsiyalar: ATE bo'lgan bolalarni mehnat bozorida qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish; maxsus kasb-hunar kollejlari va ishlab chiqarish korxonalarida ularga mos sharoit yaratish; ommaviy axborot vositalarida kasbiy muvaffaqiyatga erishgan ATE bo'lgan shaxslar haqida ijobiy targ'ibot olib borish.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirish – ularning kelajagini belgilovchi eng muhim jarayonlardan biridir. Psixolog bu jarayonda nafaqat maslahatchi, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, qo'llab-quvvatlovchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan kasbiy yo'naltirish ishlari bu bolalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, jamiyatda mustaqil yashashi va baxtli hayot kechirishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdullayeva, M. (2021). Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Vygotskiy, L.S. (2023). Psixologiya razvitiya rebenka. Izd-3. – M.: Pedagogika.
3. Ochildiyev, M. (2020). Kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. World Health Organization (WHO). (2024). Global Report on Disability and Education. Geneva.
5. Yusufbekova, R. (2022). O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixologik yondashuvlar. Buxoro: BuxDU nashriyoti.